



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 12-sentabr

102-5-70-F/24

Konimex tuman hokimiligi

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 213, 217-221, 228 va 233-moddalari, Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 17-martda 2985-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Yillik mehnat ta’tili vaqtida saqlanib qolinadigan o‘rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga asosan Konimex tumani Xalq qabulxonasi farroshi Kasimova Mavluda Ostanovnaga 2024-yil 10-sentabrdan **27 kalendar** kundan iborat asosiy, Mehnat kodeksining 220-moddasiga asosan 2 kalendar kuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi 743-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq **3 ish** kundan iborat qo‘shimcha ta’til berilsin.

2. Mazkur xodimning ishga chiqish vaqti 2024-yil 15-oktabr kuni etib belgilansin.

3. Bosh hisobchi amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli to‘lovlarni hamda sog‘ligini tiklash uchun 1 (bir) oklad miqdorida moddiy yordam belgilangan tartibda o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishini ta’minlasin.

Asos: M.Kasimovaning tuman hokimi nomiga yozgan arizasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 743-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdagi PF-213-son Farmoni.

Konimex tumani hokimi



**RO‘ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH**